

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Sh.Yodgorov**

Misrning mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash siyosatida diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash xususiyatlari ..... 551

**Sh.Latipov**

Autentik matnda lakanalarning ifodalanishi ..... 548

**M.Baybaeva, I.Imomov**

Talabalarning nizoli xulq atvorini pedagogik tashxis etishning sinergetik tuzilmali modeli ..... 551

**F.Temirov**

Sadiddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari ..... 555

**X.Qodirov, N.Abdullajonova**

Hamkorlik pedagogikasining insonparvarlik hususiyatlarini shakllantirishdagi ahamiyati ..... 560

**M.A.Abdumalikova**

"Ming Bir Kecha" - sharq xalqlari ijodining ajoyib durdonasi ..... 564

**M.A.Fayzullaeva**

Ta'lim klasteri sharoitida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirishning ilmiy tahlili ..... 567

**B.Abdullayev**

Farg'ona vodiysi so'ngi Bronza va Ilk temir davrida ..... 572

**S.M.Isroilova**

Oliy o'quv yurtlari talabalarida etakchilik fazilatlarini shakllantirish ..... 586

**Sh.Sh.Qosimova, M.M.Darmanov**

In vitro texnologiyasi asosida maxalliy uzum navlarini ko'paytirish ..... 589

**D.R.Uralov**

Tog'ay Murod qissa va romanlarini o'qitishning hozirgi kundagi dolzarb jihatlari ..... 593

**M.F.Nishonov, O.M.Umarova**

*Chicorium intybus L.* o'simligining elementlar tarkibi va miqdorini o'rganish ..... 598

**E.X.Bozorov, A.N.Jo'lliyev**

Neytronlar fizikasi fani ma'ruzlarini o'qitishda "Venn diagrammasi" usulidan foydalanish ..... 602

**M.M.Bokiyev, I.R.Asqarov**

Ateroskleroz kasalligini davolashda ayrim sintetik dorilar va yerqalampirni ahamiyati ..... 606

**R.A.Abdukarimova**

Oilaning ijtimoyilashuvida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning falsafiy mohiyati ..... 609

## FARG'ONA VODIYSI SO'NGI BRONZA VA ILK TEMIR DAVRIDA

### ФЕРГАНА В ПЕРИОД ПОЗДНЕЙ БРОНЗЫ И РАННЕЖЕЛЕЗНОГО ВЕКА

### FERGHANA IN THE LATE BRONZE AGE AND EARLY IRON AGE<sup>39</sup>

Baxtiyor Abdullayev<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Baxtiyor Abdullayev

– Samarqand arxeologiya instituti, katta ilmiy xodim,  
tarix fanlari nomzodi.

#### Annotation

*Farg'ona vodiysi tarixshunosligining so'ngi bronza va ilk temir davriga oid ko'chmanchi va o'troq madaniyatlari hozirgi vaqtgacha mintaqada to'plangan hamda yangi yodgorliklaridagi dala tadqiqotlari jarayonida aniqlangan arxeologik artefaktlari qiyosiy solishtirma tahlillar va yangicha yondashuv asosida yoritilgan. Tahlillar natijasiga ko'r, garchi ko'chmanchi va ziroatkor madaniyatlarning o'zaro madaniy aloqalari so'ngi bronza davridan kuzatilgan bo'lsada, faqatgina mil.avv. I ming yillik o'ttalaridan boshlab mintaqada ko'chmanchi va ziroatkor madaniyatlari orasida sintez yoki assimiliyatsiya jarayonlari kuchaydi.*

#### Аннотация

На основе сравнительно-сопоставительного анализа освещена историография Ферганской долины кочевых и оседлых культур поздней бронзы и ранне железного века, собранная в регионе до настоящего времени, и археологические артефакты, обнаруженные в ходе полевых исследований на новых памятниках. и новый подход. По результатам анализа, хотя взаимные культурные контакты кочевой и земледельческой культуры наблюдались с эпохи бронзы, только в до н.э. С середины I тысячелетия в регионе усилились процессы синтеза или ассимиляции между кочевой и земледельческой культурами.

#### Abstract

*On the basis of a comparative analysis, the historiography of the Ferghana Valley of nomadic and settled cultures of the Late Bronze and Early Iron Age, collected in the region to date, and archaeological artifacts discovered during field research at new sites are highlighted. and a new approach. According to the results of the analysis, although mutual cultural contacts of nomadic and agricultural cultures were observed from the Bronze Age, only in BC. Since the middle of the 1st millennium, the processes of synthesis or assimilation between nomadic and agricultural cultures have intensified in the region.*

**Kalit so'zlar:** Farg'ona vodiysi, Xonobod, so'ngi bronza va ilk temir davri, qo'lda yasalgan sopol idish.

**Ключевые слова:** Фергана, Ханабад, поздняя бронза, раннекорейский век, лепная расписная керамика.

**Key words:** Ferghana, Khanabad, Late Bronze, Early Iron Age, painted handmade vessel.

#### KIRISH

So'ngi bronza va ilk temir davri Farg'ona vodiysi tarixshunosligining eng muammoli jabhalaridan xisoblanadi va buning asosiy sababi mintaqada kadim madaniyatlari ketma-ketligi konsepsiyasida Sho'rakashot madaniyati o'rnini va davrining noaniqligi hamda Eylaton madaniyatiga "o'troq" maqomini berilishidadir. Shu tufayli, taqdim etilayotgan maqola ushbu universitet qoshida olib borilgan xalqaro anjumanida muallif tomonidan mintaqada qadimiyatiga oid ko'tarib chiqilgan muammo [11] ning bir necha rakurslarda boyitib berilgan mantiqiy davomi bo'lib qoladi. Agarda, bu keltirilgan anjumanda Eylaton va Sho'rakashot madaniyatlarini yoritishda oldingi tadqiqotchilar tarafidan berilgan ilmiy-nazariy xulosalar tahlili muallifning shaxsiy tadqiqot natijalariga tayangan holda berilgan bo'lsa, ushbu maqolada mavzuni yoritish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: I-II. mavzu markazida turgan ikki madaniyat yodgorliklaridan oldingi va hozirgi tadqiqotlar natijasida topilgan arxeologik (xunarmandchilik mahsulotlari va me'morchilik) artefaktlarining qiyosiy-solishtirma tahlillari; III. mintaqada shakllangan ilk markazlashgan davlatchilikda bu ikki madaniyat sohiblarining o'rni va roli; IV. Qadim Farg'ona markazlashgan (Davan) davlati tomonidan dehqonchilikni rivojlantirishga qaratilgan ichki siyosati maqsadlari va natijalari tahlillari keltiriladi hamda yakunda bu tahlillar bo'yicha umumlashtirilgan xulosa taqdim etiladi.

<sup>39</sup> Maqola IL -462105791-soni "Xonobod tog' etaklarida (Andijon viloyati) arxeologik obyektlarni o'rganish orqali 3D arxeologik xarita va elektron ma'lumotlar bazasini yaratish" loyihasi doirasida tayyorlangan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XX asrning 60-yillari tadqiqotchilar Eylaton madaniyati kulolchiligidagi xajmi jixatidan katta bo'Imagan, ixcham qo'lda yasalgan kosa va ko'zalar ustivor bo'lib, ular Chust va Sho'rabsosh madaniyatlaridagilardan farq qilishini takidlab o'tganlar [33. 40-41; 26. 43, ris. 1; 23. 16-18]. Bu esa madaniyat sohiblarining ko'chmanchi turmush tarzini olib borganligini ko'rsatadi. Keltirilgan tadqiqotchilardan ancha keyin bu muammoni nazariy tahlillari bilan shug'ullangan olim fikriga ko'ra, Eylaton madaniyat sohiblarini qo'lda yasalgan idishlaridagi bezak-naqshlarining aksariyati va oldindan mayjud bo'lgan Chust madaniyati sopol idish ornamentatsiyasi o'tasida keskin farq belgilanib, ular orasida davomiylik bo'Imagan [39. 14]. Holbuki, bu madaniyatlar sopol kompleksini sinchiklab o'rganib chiqgan olim ham ular orasida keskin farq bo'lishini takidlab – bunda evolyutsion taraqqiyotdan ko'ra, bir davr texnologiyasidan ikkinchisiga "sakrab o'tish" kuzatiladi deb xulosa qilgan [36. 96-97].

Vaholanki, bronza davriga oid Qayroqqum ko'chmanchi madaniyatini keng ko'lamda o'rgangan qadimshunos undagi sopol komplekslarini qo'shni madaniyat kulolchilik mahsuloti namunalari bilan qiyosiy solishtirma tahlililari natijasida quyidagi xulosaga kelgan: "Eylaton madaniyati qo'lda yasalgan sopol komplekslarida Qayroqqum madaniyati so'ngi davri sopol idishlari bilan o'xshashlik jixatlari ancha ko'p. Ayniqsa, Eylaton sopol kompleksining eng ko'p sonli 1- va 4-tiplari [33. 33-40] Qayroqqumni 3- va 5- gurux sopollari bilan deyarli bir xil. Ko'p hollarda ulardagi o'xshashlik haqida emas, balki shakllari, ishlab chiqarish texnikasi, ornamentatsiyasi bir-birini takrorlashi haqida gapirish mumkin" [52. 256]. Bu hol esa, Eylaton madaniyatini ziroatkor Chust madaniyati bilan emas, balki ko'chmanchi Qayroqqum madaniyati bilan genetik bog'liqligi bo'lgan deb takidlashga undaydi. Bu borada boshqa tadqiqotchining fikriga ko'ra, Eylaton madaniyatini shakllanishi bevosita mahalliy Qayroqqum madaniyati sohiblari bilan kelgindi ko'chmanchi sak qabilalarining o'zaro qorishuvi natijasida amalga oshadi. Shuningdek, Eylaton madaniyatini ko'chmanchilar sarasiga kiritilishi qadim Farg'ona markazlashgan davlatchiligin kelib chiqishini ko'p jihatdan tushuntiradi [41. 11].

Chust va Eylaton madaniyatlarini orasida vorisiylik masalalari davriy jixatdan ham to'g'ri kelmaydi. Ta'kidlash lozimki, Eylaton madaniyati uchun "o'troq xayot tarzi" maqomining mustahkamlanishi, yuqorida ko'rsatilganidek, Oqtom va Qo'ng'ay qabr qo'rg'onlarining ayrimlarida topilgan kulolchilik mahsulotlari xajman kattalashgan bo'lib, ulardagi bo'yoqli naqshlarining an'anaviyalaridan o'zgacha ko'rinishda bo'lgan nus'halari aniqlanganligi bilan bog'liq. Bu idishlarning ornamentatsiyalaridagi naqshlar va fon rangi saqlanib qolgan holda Chust va Dalvarzin sopol idishlaridagi rang-tasvir chizgilariga xos qilib yaratilgan. Bunday vaziyat, o'z o'rnida, tadqiqotchilarga Chust va Eylaton madaniyatlarini o'tasida genetik aloqa bor degan xulosaga kelish imkonini berdi [24. 87; 27. 42-43]. Biroq, bizning fikrimizcha, keltirilgan holat bu madaniyatlarining genetik munosabatlaridan ko'ra boshqa me'zonlar bilan bog'liq bo'lgan va uni, yuqorida keltirganimizdek, K. Eynshteyn ko'chmanchilar san'atiga nisbatan taqdim etgan dunyoqarash bilan belgilash maqulroq. Birinchidan, dastlab Qayroqqum ko'chmanchilar [52. 255, 256-257, 288-289; 53. 127], so'ngra esa Eylaton madaniyati namoyondalari, Chust madaniyati dehqonlari bilan faol iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatishtan manfaatdor bo'lgan. Ya'ni, bu madaniyatlar orasida yon qo'shni qabilalariga xos o'zaro munosabatlar bo'lgan, demakki – ular ma'lum vaqt parallel ravishda xayot olib borishgan. Bu hol esa, bizning fikrimizcha, ushbu ikki madaniyatlar orasida genetik aloqa mavjudligi masalasini olib tashlaydi hamda tadqiqotlarda Eylaton madaniyati shakllanish davrini qadimiyashtirish zarurligidan dalolat beradi. Ya'ni bu madaniyat ziroatkor Chust madaniyatining ohirgi bosqichlarida shakllangan bo'lib, uning davri noaniq mil.avv. (VII)VI-III asrlar emas, balki qat'iy ravishda kamida mil.avv. VII-III asrlar bilan belgilash xaqiqatga yaqinroq bo'ladi. Ikkinchidan, Eylaton madaniyati sohiblari shunga o'xshash qo'shnichilik munosabatlarini xayot tarzi bevosita dehqonchilik bilan bog'liq Sho'rabsosh madaniyati namoyondalari bilan ham faol olib borishgan. Natijada, bu madaniyatlar sopol idishlaridagi bo'yoqli naqshlar o'zaro ta'siriga va har birida boshqasining ornamentatsiya elementlari o'tishiga hamda bir birining kulolchilik mahsulotlaridan foydalanishga olib kelgan [23. 19; 39. 19; 7. 11-13].

Bu borada, 2020-2021 yillari Andijon viloyatidagi Xonobod-1 yodgorligida olib borilgan arxeologik izlanishlarimiz natijasida qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan sopol idishlardan tashqari ikkita charxda tayyorlangan gardishi tik tanasi yarim sferasimon hamda tagi tekis idish topilib, u mayin qum qo'shilgan och sarg'ish loydan tayyorlangan. Xurmachaning 4/1 pastki qismida

jilvirlangan (losheniye) sariq angob qoplamasasi saqlangan, ya'ni bu idishni sirti dastlab sariq angobli "sir" bilan qoplangan. Idish shaklining o'ziga xosligi shundaki, uni kelib chiqishi dastlab Oqtom mozorlarida aniqlangan va tuvak (xurmacha?) deb belgilangan [24. 85-86, ris. 30, 23a-23b]. Idishning qiyosiy solishtirma tahlil natijalariga ko'ra bu kabi idishlar Sho'raboshot yodgorligidan ham topilgan [32. 23, 24, ris. 8, 2; 34. 124, 129, ris. 27], lekin bu yerda ular qo'lda yasalgan va qizil ranga (angobga) bo'yagan, biroq shakli va xajmlari o'xshash bo'lismiga qaramay tadqiqotchi tomonidan ular kosa deb keltirilgan. Shuningdek, bu idishlardan birining tag qismida uchlari aylana shakliga keltirilgan xoch tamg'asi bo'lgan. Bunday tamg'alar "ko'chmanchilarni xususiy mulki" ekanligi bo'yicha bir qator tadqiqotchilarining ilmiy ishlari mavjud va ularni bir qanchasi ushbu satrlar muallifining maqolasida umumlashtirib berilgan [9. 108-109]. Bu kabi tamg'alangan ilk idish namunasi xususan Eylaton shahar harobasidan topilgani tafsinga sazovor [58. 188-189, ris. 2, 8].

"Sho'raboshot ziroatchilari Chust madaniyati davomchisi" deb ilgari surilgan g'oyaga doir Andijon viloyatining Qo'rg'ontepaga tumanidagi Qo'shtepa-2 yodgorligini quiyi madaniy qatlamlarida qayd etilgan qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan sopol idish fragmentlari qiyosiy solishtirma tahlil natijalarini ham keltirish mumkin. Qo'shtepa-2 eng quiyi madaniy qatlamida aniqlangan yerto'la ichida dastlab qayd etilgan sopol parchasidagi naqsh och qirmizi fon ustiga qizg'ish-jigarrang bo'yoq bilan idishning tashqi sirtida berilgan [7. 8, ris. 4, 8]. Naqsh ichi qiya kataklar bilan to'ldirilgan rombdan iborat bo'lgan. Bu kabi naqshlar, tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, o'ziga xos ma'noni bildirib, Qadim Sharqni ilk davlatlari davrida shakllangan "xayot daraxtining" sxematik ramzini anglatgan [15. 20-22; 46. 47-51; 43. 107]. Shu tufayli, ehtimol, bunday naqsh vodiydagi nafaqat ilk ziroatkor Chust madaniyati sohiblari yaratgan idishlarda ko'p qo'llaniladigan bezaklar sarasiga kirgan [34. 26, tabl. XVII, 1-8; S. 131, tabl. XLVII, 1, 3, 25; LII, 5, 8; LIV, 4; LV, 2, 3, 8, 11; LVI, 13-15], balki bu an'ana bir qator texnologik o'zgarishlar va yangiliklar bilan boyitilgan holda antik davri yakuniga qadar vodiyligi keng foydalilanigan.

Chust, Eylaton va Sho'raboshot madaniyatlari o'zaro madaniy aloqalari xaqida ma'lumotlar beruvchi artefaktlar qisman Qo'shtepa-2 yodgorligida qayd etilgan bo'lib, 2-qurilish gorizontiga oid manzilgohining pol qatlami ustidan ilk antik davrga oid charxda yasalgan qizil angobli sopol idish parchalari bilan Sho'raboshot madaniyatini, o'ziga xos etaloni – qo'lda tayyorlangan va bo'yoq bilan naqshlangan yarim sferasimon kosa (vaza?) bo'lagi ham topilgan [7. 10, ris. 6]. Idish gardishini tashqi tarafi o'zaro nuqtasifat hoshiyalar orqali tutashtirilgan ikki qator parallel chiziqlar, hamda idishning bel qismida ichi qiya chiziqlar bilan to'ldirilgan gorizontal romblar shodasi va ular tutashgan joyda yuqoriga qaratilgan shoxchalar ko'rinishida bezatilgan. Yuqorida ko'rsatilganidek, ichi qiya kataklar bilan to'ldirilgan romblarning kelib chiqishi so'ngi bronza davriga tegishli bo'lib, kulolchilar orasida keng tarqalgan va tadqiqotchilar tomonidan alohida klassifikatsion guruxga ham kiritilgan [56. 42]. Biroq, ichi qiya chiziqlar bilan to'ldirilgan romblar, tahminimizcha, Sho'raboshot madaniyati sohiblari idishlarni bezashda kiritgan yangiligidir. Vaholangki, kamsonli bo'lsada bunga o'xshash naqsh Eylaton madaniyatiga oid Qo'ng'ay qabr qo'rg'onidan topilgan idishda ham mavjud bo'lgan va u mil.avv. IV-II asrlar bilan sanalangan [25. 178, ris. 6, 4]. Qo'ng'ay yodgorligi sanasi Qo'shtepa-2 manzilgohidagi Sho'raboshot va Eylaton madaniyatlari sintezi davriga yaqinligini inobatga olib, ushbu bezash uslubi Eylaton madaniyati kulolchiligiga olib kirilgan deyish mumkin. Biroq, ulardagi romb shodasi gorizontal chiziq bilan ikkiga bo'lingan va o'zaro asoslari bilan tutash juft uchburchaklar qatorini tashkil etgan. Zero, bu kabi qiya chiziqlar bilan to'ldirilgan uchburchaklar shodasidan iborat naqshlar Eylaton madaniyatiga oid idishlar uchun tez-tez uchrab turadigan ornament xisoblanadi [24. 87, ris. 31, 2-3, 8; 50. 91, ris. 21].

Ichi qiya chiziqlar bilan to'ldirilgan romblar vositasida bezatilgan idishlar Sho'raboshot shahar harobasining quiyi qatlamlarida ham topilgan [32. 29, ris. 7, 16; 34. 299, tabl. LII, 1], biroq idish labidagi nuqtasimon hoshiya bilan tutashtirilgan ikkita parallel chiziqlar Qoradaryo shahar harobasidagi sopol buyumlari hamda Xonobod-1 qabr qo'rg'onidan topilgan marosim idishlarida ham aniqlangan [32. 37-38, ris. 13, 7; 66. 236]. Qiyosiy solishtirma tahlillarga ko'ra Sho'raboshot madaniyatining uzoq taraqqiyoti davomida, ayrim variatsiyalar va o'zgarishlar bilan, idishlarni o'ziga xos bezatish an'anasi saqlanib qolgan. Biroq, yodgorlikni bu madaniy qatlamida nafaqat Eylaton va Sho'raboshot madaniyatlarni o'zaro sintezi natijasida ishlab chiqilgan idishlar naqshlaridagi o'xshashliklarga oid artefaktlar topilgan, balki faqat Eylaton madaniyatiga xos sopol komplekslari ham aniqlangan [7. 12, ris. 7].

Tadqiqot davomida pol yuzasi tozalangach, qazishmaning janubiy-sharqiy qismida xo'jalik o'rasi aniqlanib, u ham kul va kuygan tuproq uyumi bilan to'lgan va uning orasidan Eylaton madaniyatiga tegishli qo'lda yasalgan va bo'yoq vositasida naqshlangan sopol idish parchalari topilgan. Sopol parchalari ichida alohida e'tiborga molegi bori bu Farg'ona vodiysi tarixshunosligida "Oqtom kosasi" [24. 84-85, ris. 30, 1-6] deb nom olgan va shu davr qabr qo'rg'onlaridan topilgan kosalar shaklini takrorlagan idish parchasidir. Vaholangki, "Oqtom kosasi" mil.avv. V-III asrlar bilan sanalashtirilgan [44. 59, ris. 25, 1]. Demak, Sho'raboshot davriga oid xo'jalik o'rasi va u bilan bog'liq xonardon polini qoplagan ikkinchi qurilish gorizontiga oid kompleksda ham Sho'raboshot, ham Eylaton madaniyatlariga tegishli sopol parchalari bo'lgan. Bu hol esa, ushbu madaniyatlar orasida ancha yaqin munosabatlar bo'lganligidan dalolat beradi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bu borada shuni takidlash kerakki, ornamentlarga ancha boy hamda har bir romb ichi o'ziga xos ravishda to'ldirilib bezatilgan kosalar kompleksi 2020-2021-yillarda olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida Andijon viloyatini Xonobod-1 yodgorligida aniqlandi. Bu yodgorlik ko'chmanchi Eylaton madaniyatiga oid qabr qo'rg'onlar turkumiga kiradi va undagi eng qadimgi qo'lda yasalib, bo'yoq bilan naqshlangan idishlar yarim sferasimon shakldagi kosa (chasha) va shokosa (miska) lardan iborat bo'lib, asosan "mato shablonida"<sup>40</sup> tayyorlangan. Bu idishlarning 1-turidagilar balandligi 6-8 sm, gardishining diametri 16-21 sm hamda 2-turidagilar balandligi 9-11 sm, gardishining diametri 22-26 sm. Shuningdek, Xonobod-1 yodgorligidan 2021-yil dala qazishmalari jarayonida yuqorida keltirilgan ornamentatsiya motivi saqlangan, kichik vertikal dastachasida ip (ot yoli yoki dum) o'tkazishga moslangan gorizontal teshikchasi bor, bir juft finjon (chashka)lar topilgan. Ular ham kosalar singari yarim sfera shaklga ega bo'lib, balandligi 4,5-5 sm va tanasini eng enli qismini diametri 5-6 smni tashkil qilgan (1-rasm). Xonobod-1 sopol kompleksidagi bezaklar och jigarrang yoki och qizil fon ustiga to'q qoramtil-qizil yoki to'q jigar rangida tushirilgan bo'lib, asosan bo'yoq kosaning faqat pastki qismiga tegmaygan. Bezakning asosiy motivi ichi turli geometrik shakllar bilan to'ldirilgan gorizontal terilgan va ko'pincha o'zaro bog'liq romblar yoki kam hollarda uchburchaklar (odatda 3 yoki 4) shodasi tashkil etgan hamda u odatta kosa tanasining o'ttasida joylashgan. Ushbu bezak Yaqin Sharqda tarixiy ildizlarga ega bo'lgan unumdonlik ramzining sxematik tasviri bo'lisl bilan birga Chust [34. 131, tabl. XVII, 1-2; XVIII] va Sho'raboshot [34. Tabl. XLVII, 1, 3, 25; LVI, 13-15; Matbabayev, 1999. S. 42] madaniyatlarida idishlarni bezashda eng ko'p foydalilanilgan. Biroq, bir tadqiqotchining fikriga ko'ra, "romb" tasviri paleolit davridan beri tabiatdagi ayol timsoli – unumdonlik ilohining ramzi bo'lgan [67. 122]. Bu kabi romb tasvirlari O'zbekiston xududi Samarcand viloyatida Nurota [64. 53] va Qashqadaryo viloyatida Siypantoshdagi qoyatosh surat (petroglif)larida ham topilgani ma'lum. Shuni takidlash lozimki, xitoy solnomalarida Davan ayollar katta mavqega ekanligini takidlab o'tilganligi va bu ma'lumotlar asosida oldingi farg'onashunoslardan biri mintaqani qadim aholisi unumdonlik ilohi bo'lmish ayol timsoliga sig'inganliklarini asoslab bergen [68. 181].

Vaholanki, ushbu ramziy ma'nno sxematik shaklda faqat so'nggi bronza davrining Chust madaniyatida ilk qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan idishlarida eng ko'p ishlatalidigan bezaklardan biri bo'Imagan. Farg'onanining qadimgi dehqonchilik madaniyatlarini soppollarini qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, voris sifatida Sho'raboshot madaniyati hunarmandlari uzoq vaqt rivojlanishi jarayonida Chust kulolchiligi an'anaviy bezak motivlarini saqlab qolgan hamda ularga ba'zi bir o'zgarish va modifikatsiyalar kiritgan. Ushbu bezak an'anası, bir qator texnologik o'zgarishlar va yangiliklar bilan boyitilib borgan. Mil.avv. I ming yillikni so'nggi asrlari va milodiy birinchi asrlarida ushbu bezak tirnab chizish texnikasi yordamida qizil angobli naqshinkor hamda nafis idishlar sirtiga ham tushirilgan [20. Tabl. III, 1, 3, 5. Tabl. VI, 3. Tabl. XI, 1-3, 5-6, 8, 10. Tabl. XI, 1-2, 4-10. Tabl. XIV, 1, 4, 7; 54. Tabl. 12 i 14; 1. 16, ris. 3; 10. 94, ris. 2, 1-2].

Xonobod-1 yodgorligidan olingan qo'lda yasalgan naqshinkor sopol idish komplekslarida vodiyni g'arbiy va janubi-g'arbiy xudlaridagi sopol idish ornamentatsiyasida yana bir farqli tomoni shundaki – ayrim idishlarni markazida joylashgan va ichi turli geometrik chizgilar bilan to'ldirilgan romb yoki uchburchak shakllarning gorizontal shodalaridagi bog'lanishlardan tashqari ularni yuqori

<sup>40</sup> Bu toifadagi sopol buyumlarining dala laboratoriysi sharoitidagi tahlillarimiz natijasiga ko'ra, qadimgi kulollar an'anasida "ochiq idishlar" (kosa va qozonlar)dagи mato izlari to'laligicha va faqat "yopiq idishlar" (ko'za va tuvaklar) gardishini ichki qismigina mayin loy qatlami bilan silliqlashtirish udum bo'lgan.

qismida o'zaro tutashgan hamda kamalakdek egik chiziqlar beriladi. Hozircha bu kabi chizgilarni talqini noaniq bo'lib qolmoqda.

To'plamdan qo'lida yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan idishlarni bezashning navbatdagi ajralmas xususiyati – bu ularning gardishidagi ornamental unsir bo'lib, u idish labining tashqi tomondan to'liq va ichki tarafidan qisman berilgan. Ushbu majmua idishlari chetida muhrlangan bu naqshni besh xili aniqlangan.

Birinchisi bir qator uchi yuqoriga qaratilgan uchburchaklar shodasi shaklida (2-rasm) va umumiy ko'rinishi tojni eslatib, Eylaton madaniyati kulolchiligiga xosdir [24. 12, 14; 25. 178, ris. 6, 1-3, 5-7, 9; 26. 43, ris. 8-10; 27. 99. ris. 2, 13]. Ammo, ushbu naqsh, bir oz kichikroq xajmda bo'lsada, Chust madaniyati idishlarida ham uchraydi [34. 264, tabl. XVII, 10-15, 48; S. 265, tabl. XVIII, 2-3, 20], chunki uchburchak yoki uchburchaklar shodasi shakllari qadimgi o'troq va ziroatkor madaniyatlari uchun yer kurrasini ramzi bo'lib xizmat qilgan [15. 14].

Gardish bezaklarning ikkinchi turi o'rtacha 2 sm kenglikda "toj" ko'rinishiga ega gorizontal tasma shakli bilan ifodalanib, uning yuqori qismida bir xil intervalda uchtadan yarim doira chizgilari ko'rinishidagi naqsh kiritilgan (3-rasm). Bu naqshni qiyosiy solishtirma tahlillari Farg'ona vodiysi g'arbi va janubi-g'arbidagi ma'lum Oqtom, Qo'ng'ay va So'fon qabr qo'rg'onlarida topilgan sopol komplekslarida uchramaganligini hamda uning mintqa sharqiga xos naqsh ekanligini ko'rsatmoqda.

Uchinchi turdag'i naqshlar – vertikal chiziqchalar bilan birlashtirilgan ikkita parallel chiziq vositasida berilgan (4-rasm). Bu borada ham qo'lida yasalgan va bo'yoq bilan bu kabi naqshlangan idishlar bevosita vodiyning sharqiy xududlariga xos ekanligi aniqlandi. Biroq, Sho'raboshot va Eylaton sopol idish gardishlaridagi ornamentatsiyasida ikki parallel chiziqlar ham vertikal chiziqchalar ham nuqtasimon xoshiyalar vositasida birlashtirilgan [34. Tabl. LVIII, 15; Tabl. LXXVIII, 2]. Nuqtasimon xoshiyalar yordamida birlashtirilgan gorizontal chiziq ko'rinishidagi naqshlar Sho'raboshot madaniyatiga oid va Andijon viloyatini Sultonobod massividan tasodifan topilgan xurmacha gardishini asosida aniqlangan (5-rasm).

To'rtinchi turdag'i naqsh idish labida 2-3 sm enlikdagi ichi qiya to'r bilan to'ldirilgan tasma ko'rinishida bo'lgan (6-rasm) va bunday ornamentatsiya elementlari vodiyya ilk bor so'ngi bronza davriga oid Chust madaniyatida aniqlangan [34. Tabl. XII, 13; Tabl. XVII, 7-8; 56. 43-46, tabl. I-IV, G13-17]. Garchi Chust, Dalvarzin va O'sh yodgorligidagi tasma shaklidagi naqshlar idishni labida joylashmagan bo'lsada, bizni fikrimizcha, ular keyingi madaniyatlar kulolchiligidagi keng qo'llanilgan hamda uni ham umumiy ko'rinishi o'ziga xos toj ko'rinishini bergen.

Beshinchi turdag'i naqshlar idish labida uch qator gorizontal chiziqlar ko'rinishida bo'lib (1, 1-rasm), u Xonobod-1 qabr qo'rg'onida topilgan finjonlarni birida aniqlandi.

Qadimgi kulollar tantanavor tadbirlar uchun foydalanilgan idishlar sirtini bezashdagi naqshlardan biri sakkiz yulduz ko'rinishida bo'lib (2-3-rasm), Sho'raboshot madaniyati kulolchiligidagi bu ko'rinishdan tashqari nihol novdalari shaklida ham qayd etilgan [34. Tabl. XLVII, 7, 16, 28; Tabl. LVIII, 14, 17; Tabl. LXI, 8, 12; Tabl. LXXVIII, 1]. Bu naqsh-ramzlarni talqini bo'yicha mahsus bir adabiyot topilmadi va shu tufayli ularni oydinlashtirishga o'ziga xos va asosan bilvosita xissa qo'shishi mumkin bo'lgan ishchi nazariyani taqdim etmoqchimiz. XVIII asrda nemis olimi G. K. Lixtenberg elektr razryadini qattiq jismga ta'sir qilishi natijasida ularning yuzasida yulduzsimon hamda novda shoxlarini eslatuvchi tasvirlar paydo bo'lishini qayd etgan [45. 10, ris. 1]. Ushbu olim nomi bilan atalmish "Lixtenberg shakli" bo'yicha tadqiqotlar XXI asrgacha davom etgan. Ma'lumki, tabiatda eng yuqori kuchlanishli elektr zaryadi momoqaldiroqda mavjud bo'lib, qadimgi odamlar uchun u ilohiy qudratning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'lgan. Chaqmoq urgan odamlarni kuzatilganda ularni tanasida ham shunga o'xshash shakllar paydo bo'lgan [63].

Insoniyat tarixini ibtidosidan boshlab ohirgi vaqtlargacha odamzod tabiatda mavjud va takrorlanib turuvchi (toshqinlar, bo'ronlar, yong'inlar, momoqaldiroq va h.) xodisalarni ilohiy deb bilgan. Bular ichida takrorlanib turishi ko'proq bo'lgan momoqaldiroq va uni oqibatida kelib chiquvchi yong'inlar natijasini kuzatgan ajdodlarimiz Tangrini quroli deb tan olganligi xaqida nafaqat Markaziy Osiyo, balki dunyodagi turli mamlakatlarning rivoyatlari vositasida bizgacha yetib kelgan. Ehtimol, shu tufayli yulduzsimon va daraxt shoxlarini eslatuvchi shakllar qadimgi madaniyat sohiblari tomonidan "ilohiyat tamg'asi" sifatida sopol sirtiga naqsh qilib joylashtirilgandir.

Farg'ona vodiysi sharqiy xududlariga xos va kamsonli tantanovor sopol idishlar naqshlaridan biri bu kosalarini pastki qismida joylashtirilgan aylana yoki uchlari birlashtirilgan gorizontal chiziq ko'rinishidagi ornamentatsiya elementidir (7-rasm). Ushbu naqshni qiyosiy solishtirma tahlili uni faqat Eylaton madaniyatiga oidligini hamda Chust va Sho'raboshot madaniyatlariga doir yodgorliklarda bo'l'maganini ko'rsatadi. Garchi, idishlar gardishini bezab turuvchi o'zaro bog'langan xalqalarning gorizontal shodasi keltirilgan ikkinchi ziroatkor madaniyat yodgorliklarida aniqlangan bo'lsada, unda butun boshli ornamentatsiya elementlaridan iborat kompozitsiyani mantiqiy yakunlovchi xalqa naqshi uchramagan. Bu ornamentatsiya elementini ham talqini adabiyotlarda berilmaydi va uni "Libknext shakllari" bo'yicha oydinlashtirish mantigan to'g'ri bo'ladi. Zero, tadqiqotchilarini izlanishlariga ko'ra, elektr zaryadini qattiq jismga ta'sirida uning musbat hamda manfiy taraflarida turli chizgilar paydo bo'lib birinchisida yulduzsimon yoki yulduz tojlar akslansa, ikkinchi tomonida xalqa shakli namoyon bo'ladi. Qaysidir ma'noda, bunday shakllar ajdodlarimiz tomonidan kuzatilgan va sopol idish naqshlari orqali keltirilgan bo'lishi mumkin.

Xonobodning qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan idishlarining o'ziga xos xususiyati shunda ediki, unda Chust, Eylaton va Sho'raboshot madaniyatlarini ornamentatsiya elementlarini o'zaro singdirilganligini kuzatish mumkin. Bu hol va tadqiqot natijalarimizga ko'ra, ularni orasida so'nggi ikkitasining bir-biri bilan qorishuvi (sintez)ga olib kelgan ma'lum bir munosabatlar mavjudligiga ishora qiladi. Ushbu munosabatlarning arxeologik tasdig'i, yuqorida ko'rsatilganidek, Qo'shetepe-2 yodgorligida olib borilgan tadqiqotlarimizda ham aniqlangan. Shularni inobatga olganda, Xonobod tog' yonbag'irlaridan topilgan qadimgi manzilgoh va mozorlarni parallel keng ko'lamli ravishda o'rganish zaruriyati bo'lib, bizni arxeologik gurux tomonidan ohirgi ikki (2020-2021) yil davomida dala tadqiqot ishlari olib borildi va davom etkazilmoqda. Vaholanki, bu kabi natijalar, bilvosita bo'lsada, oldingi tadqiqotchilar xulosalarida ham keltirigan [6. 114].

Mintaqa ko'chmanchi va ziroatkor madaniyatlarini orasidagi farqni tavsiflovchi mavzuimzga doir shuni ham takidlash lozimki, o'troq xayot tarzini maqbul ko'rgan ajdodlarimzga xos toshdan yasalgan eshik "oshiq-mashuqlari" (podpyatnik) Eylaton madaniyatiga oid yodgorliklarini xech birida qo'lga kiritilmagan. Zero, ko'chmanchilar o'tovini eshiklari qadimda faqat kiygiz mato bilan yopilgan va bu an'ana, bizni fikrimizcha, dastlab o'troqlashgan ko'chmanchilar uylarida ham saqlangan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Shu bilan birga, Farg'ona vodiysi qadimgi ziroatchi madaniyatlariga oid tosh o'roqlarni qiyosiy solishtirma tahlillariga ko'ra, Sho'raboshot madaniyatiga qarashli yodgorliklarda aniqlangan bu kabi mehnat qurollarining kelib chiqishi aksariyat hollarda mintaqani so'ngi bronza davri materiallariga borib taqaladi [34. Tabl. XXV-XXVI. 23. S. 9]. Biroq, Eylaton shahri, Simtepa, Sarvontepa manzilgohlari va keltirilgan 20 ta yodgorliklar quyi qatamlari hamda vodiyni g'arbi va janubi-g'arbidagi bu madaniyatga doir qabr qo'rg'onlarida ushbu mehnat qurolining qayd etilmaganligini ko'rsatmoqda. Ilk bor bu holat Xonobod-1 qabr qo'rg'onida aniqlandi va bu, bizningcha, Eylaton ko'chmanchilarini bevosita ziroatkor Sho'raboshot madaniyati bilan yonma-yon yashaganligi tufayli bir biriga ancha yaqin munosabatda bo'lganligi hamda bu ikki madaniyat qorishuvining yana bir xosilasi deb qarash mumkin.

Urbanizatsiya va shaharsozlik sohasida ham ziroatkor va ko'chmanchi madaniyat sohiblar orasida ancha farq bo'lgan. Bunga dastlab ushbu madaniyat oqsoqollari qaroriga ko'ra bonyod etilgan Eylaton shahrini qurilishi misol bo'ladi, zero bu shaharning bonyod etilishi ko'pchilik tadqiqotchilarini fikricha mil.avv. I ming yillikni o'rtalariga to'g'ri keladi. Shuningdek, bu shahar o'zining tavsifi va maydoniga ko'ra oldingi Chust (Dalvarzin 24 ga, Ashkaltepa 13 ga, Chust 4,5 ga) hamda keyingi Sho'raboshot (Sho'raboshot 70 ga, Goz-depe, Toton-depe 20 ga, Qoradaryo 10 ga va b.) madaniyatlariga tegishli yirik va o'rta shaharlardan keskin farq qiladi.

Vodiylarining bronza davriga oid e'tiborli vo'qeligi shundan iboratki, XX asrni 50-yillaridan boshlab hozirgacha olib borilgan tadqiqot natijalari bo'yicha Chust madaniyati davrining deyarli ikkinchi yarmidan boshlab yirik shaharlar qurishdan voz kechiladi va asosan mayda (0,005-0,25 ga atrofida) va kichik (0,5 ga atrofida) manzilgohlar bonyod etiladi [34. 84; 36. 25]. Bunday xulosa o'sha davr iqtisodiy va siyosiy omillari asosida quyidagicha izohlanadi: 1) sug'orma dehqonchilikda muhim rol o'ynaydigan tuproq osti suvlarini ketkazish uslublari (zaur va zakanlar) hali kashf qilinmaganligi tufayli Chust madaniyati ziroatkorlari ko'pi bilan har 50-100 yilda bir joydan ikkinchi joyga ko'chib borishiga to'g'ri kelgan va shu sababli, bizni fikrimizcha, katta shaharlar bonyod etish iqtisodiy jixatdan o'zini qoplasmagan; 2) iqtisodiy barqarorlik manfaatlari savdo va tovar ayriboshlash yoki bir qabilani ikkinchi tomonidan bo'ysindirish vositasida amalga oshiriladi.

Aksariyat hollarda ziroatchi madaniyati sohiblari ko'chmanchilar mahsulotiga muhtoj bo'Imagan, chunki ular o'z xo'jaligida dehqonchilik va xunarmandchilikni rivojlantirish barobarida xonaki chorvachilik samaradorligini ham yuqori darajada olib borishgan. Shu tufayli, ko'chmanchilar o'z tezkor va xarakatchan suvoriylari vositasida dastlab ziroatkorlarni nisbiy qabilalar tobe'ligiga, so'ng mutlaq davlat tobe'ligiga olib kelgan bo'lishi kerak. Bu maqom esa Chust taraqqiyotini ohirgi bosqichlarida, keyinchalik esa, Sho'raboshot madaniyatlarini sohiblarini kichik xajmdagi manzilgohlar qurish majburiyatini keltirib chiqargan bo'lishi ehtimolidan holi emas. Garchi, ikkinchi ziroatkor madaniyatga oid markaziy (Sho'raboshot) hamda yirik (Ooz-debe va Toton-debe) shaharlari bundan istino bo'lsada, umumiy ko'rinishni o'zgartirmasdi. Albatta, bu ishchi nazariya va u keng qamrovli dala tadqiqotlari vositasida o'z arxeologik tasdig'i topishi lozim. Biroq, qanday bo'lganda ham kamida mil.avv. I ming yillikni 2-choragidan boshlab bu ziroatchi madaniyatlarini aksariyat manzilgohlari maydoni 0,5 gettardan oshmagan. Bu hol esa, "Chust madaniyati davomchisi Eylaton" deb ko'rilgan g'oya bir qancha muammoli hamda dalil asos zamiri ancha zaif ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Eylaton qurilish me'zonlari (shakli va maydoni) hamda sabablari (demografik rivojlanish hamda dehqonchilik va xunarmandchilik mahsulotlariga muxtojligi)ga ko'ra ko'proq Yevroosiyo ko'chmanchi madaniyatlarini tomonidan qadimdan to o'rta asrlargacha bunyod etilgan shaharlarga o'xshaydi. Yevroosiyo dasht xududlarida ko'chmanchi chorvador aholisining demografik o'sishi tufayli ularni qashshoqlashgan toifalari ko'chmanchi jamiyat ichida, dehqonchilik yoki hech bo'Imaganda bog'dorchilikka yaroqli yerlarda, yaratilgan maxsus manzilgohlarga joylashtirilgan [59. 181-182; 60. 271-274; 30. 55-59; 69. 51-92; 48. 126-127]. Bu kabi shaharlarda aholining ko'pchiligi dehqonchilik, o'troq chorvachilik, baliqchilik hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanganligi arxeologik dalillar bilan tasdiqlangan [31. 68-80]. Shuni ham takidlash lozimki, Eylatonning faqat 20 getkarli ichki shahrida sanoqli binolar o'rnini saqlangan, biroq 200 getkarli tashqi shahri bo'sh bo'lgan. Bu esa, fikrimizcha, ularni ko'chmanchilarning an'anaviy migratsion yo'nalishlarida bunyod etilganligi hamda qashshoqlashgan aholi toifalarini qo'shimcha dehqonchilik va xunarmandchilik mahsulotlarini yetishtirishga sharoit yaratilishi barobarida, katta miqdordagi chorvani ham ma'lum vaqt oziqlantirish va mol o'g'rilaridan muhofaza etish vazifalarini ado etgan.

Eylaton madaniyatidan farqli o'laroq Sho'raboshot madaniyatiga oid shahar va manzilgohlar soni o'tgan asrning 80-yillarigacha 50 dan ortig'i qayd etilgan bo'lsa, hozirda ohirgi tadqiqotlar natijalariga ko'ra ularning soni ancha ko'p bo'lganligi aniqlanmoqda. Shu bilan birga, Sho'raboshot madaniyatida ham ziroatchi Chust madaniyatidagi singari yodgorliklarning aksariyati 0,5-1 gettgachaga maydonga ega bo'lgan, biroq yuqorida keltirganimizdek yirik va o'rtacha shaharlar ko'lami ham bir qancha ko'p bo'lgan. Bu holat, bizning fikrimizcha, davlat boshqaruvidagi ko'chmanchi zodagonlarni o'z markaziy Eylaton shahridan bevosita ziroatkor Sho'raboshot madaniyati keng tarqalgan xudduddagi shaharlarga kirib borishi hamda shu markazlardan turib yangi yerkarni o'zlashtirishga qaratilgan ichki siyosatni amalga oshirishda ziroatchi jamoalariga rahnamolik qilishgan. Bu madaniyatlar sintezi rivojlanishi, keyinchalik eylatonlik shahar qurish uslublarining vodiysi sharqiy muzofotlaridagi boy ziroatkor xududlariga kirib borishiga olib kelgan. Ehtimol shu tufayli, Eylaton Markaziy Osiyodagi shu kabi ko'chmanchilar markaziy shaharlari – Kanka va Kal'ai Zoxaki Maron [62. 26-28] singari ming yillar davomida taraqqiy etmagandir

Mustaqillik yillari olib borilgan tadqiqotlar natijasida mintqa me'morchilikdagi ham Eylaton va Sho'raboshot madaniyatlarini o'zaro sintezi o'z aksini topadi. Jumladan, Andijon viloyatidagi Mingtepa shahar harobasi XX asrning ohirigacha, dastlab qadimshunos A. N. Bernshtamni arxeologik dala izlanishlari natijalariga ko'ra, to'g'ri to'rburchak tasnifga ega deb tarif etilgan [22. 25-28, ris. 89]. Biroq, 2012 yili O'zbek-Xitoy qo'shma ekspeditsiyasi bu shahar Eylatonga o'xshash parallelogram rejasiga ega ekanligi aniqlandi [57. 94, ris. 1; 65. 94]. Shu bilan birga, Eylatondan farqli Mingtepa ichki shahar tarkibiy qismi ma'muriy markaz sifatidagi ark va diniy markaz vazifasini bajargan ibodatxonadan tashqari oliy tabaqa vakillari bo'lmish davlat tarkibidagi turli qabila yoki mikrovoha oqsoqollari uchun bunyod etilgan 14 ta salobatli ko'shklardan tashkil topgan [8. 68; 65. 89].

Yuqorida keltirilgan faktlar me'morchilikdagi bu o'zgarishlar ilk temir va ilk antik davrlarida Eylaton va Sho'raboshot madaniyatlarini o'zaro ham siyosiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy

munosabatlarining ko'chmanchi zodagonlar rahnomaligida tobora yaqinlashib borganligidan hamda ko'chmanchilarini davlatchilikdagi mavqeini yuksalganligidan dalolat beradi.

Keltirilgan ohirgi fikrlar bevosita Markaziy Osiyoda bo'lgan tarixiy voqeylek bilan chambarchas bog'liq. Tarixshunoslikda mavjud fikrga ko'ra "mil.avv. I ming yillikning ikkinchi yarmida sinfiy jamiyat va davlatning rivojlanish yo'lida" butun Markaziy Osiyo xududida o'ziga xos "yagona siyosiy-iqtisodiy organizm" (YASIO) bo'lib u o'zida ko'chmanchi va o'troq madaniyatlar dunyosini birlashtirgan [62. 52]. Tadqiqotchilar buni Markaziy Osiyo o'troq va ko'chmanchi xalqlarining Ahamoniylar va undan keyin yunon-makedon istilochilariga qarshi olib borgan shiddatli kurashiga izoh sifatida ko'radilar. Boshqa tadqiqotchining fikricha ham, aynan shu davrdan boshlab "o'troq-ziroatchi" va "yarim ko'chmanchi (chorvador)"lar orasida simbioz munosabatlari qayd etilgan [38. 22]. Shu bilan birga, yozma va arxeologik manbalar Davan davlatini dastlab yarim ko'chmanchi Qang' va keyinchali Kushon davlatlari bilan ittifokda yashab kelganligidan dalolat beradi [55. 55; 47. 184]. Shuningdek, bir qator tadqiqotchilar nazariy xulosalariga ko'ra, bu kabi o'troq va ko'chmanchi qabilalarning o'zaro alokalari so'ngi bronza davrida shakllanib, to so'ngi o'rta asrlargacha ravnaq topgan [52. 231; 49. 93, 94; 61. 96; 29. 101; 19. 72-74, ris. 1; 5-6; 8-9; 18. 185-189].

Bizning tadqiqot natijalarimiz bu ikki madaniyat sohiblari orasida nafaqat madaniy aloqalar rivoj topganligi, balki ular orasida qavm-qarindoshlik rishtalari ham o'rnatilganligiga ishora qilmoqda. Bu kabi jarayonlar, garchi ikki taraflama manfaatli ko'rinsada, bizni nazdimizda, ularning tashabbuskor Eylaton madaniyati zodagonlari bo'lishi kerak. Zero, bizdan oldingi va hozirgi farg'onashunoslarni "vodiydagi ilk markazlashgan davlatchilik shakllanishi hamda ravnaq topishida ko'chmanchilar boshqaruv tizginlarini o'zlarida saqlaganlar" – degan g'oya birlashtirgan [29. 102; 39. 3-4].

Albatta, bu kabi xulosalarni zamirida ko'chmanchilarning tezkor xarakat qila olishi tufayli katta masofalarni qisqa muddatta bosib o'tishi hamda tog'lik, adirliklar va pasttekisliklarda ko'chib yurishi sababli vodiyni deyarli barcha past-tekisliklari, daryolardagi kechuvlarni bilishi, tog' so'qmoqlaridagi aylanma va qisqa yo'llardan habardorligi yotardi. Tabiiy kengliklar miqyosida mushohada qila olish, mobil suvoriy jangchilarga ega ko'chmanchi madaniyati rahnomalariga katta harbiy qudrat bag'ishlagan. Bu borada qadimgi ziroatchilar imkoniyatlari pastroq bo'lgan. Garchi ular ziroatchilik, xunarmandchilik va xonaki chorvachilik sohalarida mehnatni takomillashtiruchi hamda xosildorlik va ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirishga qaratilgan bir qator kashfiyotlar qila olgan bo'lsalarda, ushbu jarayonlarni boshqarish manzilgoh, nari borsa, mikrovoha miqyosida amalga oshirilishi mumkin edi xolos.

Yuqorida keltirilgan ma'lumot va ishchi nazariyalar ilk temir va ilk antik davrlarida mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Keltirilgan o'tmishe vo'qeliklaridan quyidagi xulosa kelib chiqadi: Agarda Markaziy Osiyo qadimiyati uchun Yevropa o'rta asrlar tarixiga oid iboralarni qo'llash mumkin bo'lsa, Eylaton madaniyati zodagonlarini Farg'ona vodiyining o'troq aholisiga nisbatan "syuzeren" va Sho'raboshot madaniyati zodagonlarini ko'chmanchi xukumron doiralariga qiyosan "vassal" deyish o'rinni bo'lardi. Biroq, mintaqqa qadimiyatini bu kabi muammoli jixatlari alohida yo'naltirilgan tadqiqot olib borilishini talab etadi.

Mintaqada davlatchilikning ilk unsurlari Chust madaniyati davri (mil.avv. XII-VII asrlar)da shakllana boshlagan. Garchi ayrim tadqiqotchilar u yoki bu ko'rinishida "markaziy poytaxt" maqomidagi shahri (Dalvarzin)ga ega Chust madaniyatida mavjud bo'lgan deb tahmin qilsalarda, bu masalada ushbu madaniyatni ilmiy muomalaga kiritgan qadimshunos takidlab o'tgan "ijtimoiy stratifikatsiya" yoki "shakllanayotgan shahar markazlari"dan [35. 18] maqbulroq boshqa narsa xali kashf etilmagandi. Qadim ajdodlarimiz tomonidan shunday madaniyatimizga ko'yilgan tamal toshi o'z kamolotini Davan davlati davrida, ya'ni xitoy solnomalarida qayd qilingan mil.avv. II – mil. V asrlarda topgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Vaholangki, ayrim ohirgi tadqiqot natijalariga ko'ra bu davlatchilikning ilk davri mil.avv. I ming yillik o'ttalarida boshlanganligi xaqida xulosalar keltirilib, yangi dala tadqiqotlari natijasida o'z tasdig'ini topmoqda [6. 116]. Aynan shu vaqt mobaynida shaharsozlik vodiyning sharqidan g'arbiga qarab yuksak taraqqiyotga erishib xunarmandchilikning barcha sohasida katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Bu jarayonlar markazlashgan xokimiyat rahnamoligida sun'iy sug'orish inshootlarining jadal ravishda bunyod etilishi asosida shakllangan. Takidlab o'tish lozimki, Andijonsoy va Shaxixonsoy yuqori qismlarining qurilishi, to'rtlamchi davr

geolog mutaxassislarini fikricha, bundan 3000 yil avval boshlangan [34. 74], biroq bu ulkan sun'iy kanallarning asosiy qismi bosqichma-bosqich keyingi davrlarda nihoyasiga yetkazilgan.

Tarixan ma'lumki, dastlabki irrigatsion inshoot bo'lmish qadimgi soylar vodiyning sharqiy xududlarida dehqonchilik maydonlarini kengaytirish maqsadida azaldan mavjud bo'lgan buloqlar o'zanlarini birlashtirish natijasida qadim ajdodlarimiz maxsus to'g'onlar vositasida daryo va soy suvlarini o'z irodasiga bo'yundirib, qadimda suvsiz yotgan yerlarga ham urug' qadab dehqonchilikdan katta xosil olish barobarida deyarli vodiyning barcha xududlarini o'zlashtirishning uddasidan chiqishgan. Shuni takidlash zarurki, sug'orma dexkonchilikning qon tomiri bo'lmish kanallarning aksariyati dastlab vodiyning sharqiy qismida va so'ngi antik davridan esa uning g'arbiy qismida bунyод etilgan [21. 150-154; 6. 116-117].

Qo'shtepa-2 va Xonobod-2 kabi yodgorliklar mil.avv. I ming yillik o'talarida Farg'ona vodiysidagi Andijonsoy, Shaxrixonsoy, Savayariq, O'zganariq, Qorasuv va boshqa sun'iy sug'orish tizimlarining bунyод etilishi jarayonlari natijasida qad ko'targan. Tadqiqotlarga ko'ra irrigatsion kanallarning qurilishi keng ko'lamda dastlab asosan Sho'rabsosh madaniyatiga tegishli yodgorliklar joylashgan vodiyni sharqiy xududlarida olib borilgan va bu holat Eylaton madaniyati xukmron doiralari butun vodiylarini o'z izmiga bo'yundirganidan so'ng amalga oshirilgan. Qaysidir manoda, garchi sun'iy suv inshootlari qadimgi ziroatkorlar tomonidan bir qator buloq va daryochalar havzasida kashf etilgan bo'lsada, ularni davlat miqyosida va keng ko'lamda olib borilishi, bizning fikrimizcha, ko'chmanchilar tashkil etgan markazlashgan davlat rahnamoligiga tegishliliqi xaqiqatga yaqinroqdir. Zero, birnichidan, yuqorida keltirilganidek, mintaqaning ko'chmanchi qabila zodagonlari mamlakat muzofotlarining g'arbida qo'shinchilik qilgan va o'z davrining yirik davlatlari bilan ittifoqdosh bo'lganlar. Ikkinchidan, agarda ziroatkorlar urug' va qabila ko'lamida bунyodkorlik (suv inshootlari va ular bo'yida manzilgohlar qurish) ishlarini olib borishgan bo'lsa, xokimiyat tepasidagi ko'chmanchi zodagonlar davlat miqyosida ish yuritganlar.

### XULOSA

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ma'lumotlariga ko'ra, Eylaton madaniyati sohiblarini o'z sopol komplekslari bo'yicha oldingi ziroatchilar bilan emas, balki ko'chmanchi Qayroqqum madaniyati bilan irsiy yaqinligi bo'lgan. Shu bilan birga, ular dastlab Chust madaniyati so'ngra uni vorisi Sho'rabsosh madaniyati sohiblari bilan iqtisodiy-madaniy aloqani olib borishgan va bu munosabatlar ikinchi madaniyat bilan ancha yaqin bo'lib, ularni qorishuvi natijasida xitoy solnomalarida keltirilgan Qadim Farg'ona (Davan) davlatiga asos solingan. Eylaton va Sho'rabsosh madaniyatlarini qorishuvi, yuqorida ko'rsatilganidek, birinchisini rahnamoligi ostida amalga oshirilgan. Bunda, Eylaton zodagonlarini o'z markaziy shahridan boshqarmasdan, balki vodiylar sharqidagi ziroatkorlar muzofatida bevosita o'z qarorgohlari – Mingtepa (Andijon vil.)ni bунyod etganlar hamda bu markazdan turib davlat iqtisodiyotini yuksaltirish maqsadida bir qator bунyodkorlik ishlarini olib borish jarayonida "Oqsoqollar kengashi"ga asoslangan boshqaruv islohatlarini xayotga tadbiq etganlar.

Garchi Sho'rabsosh vakillari xunarmandchilik, dehqonchilik rivoji uchun sun'iy suv inshootlari hamda manzilgoh va shaharlar qurish bobida ko'plab ixtiolar qilgan bo'lsalarda, ularni keng davlat ko'lamida xayotga tadbiq etish masalalari xukmron ko'chmanchilar rahnamoligiga ko'ra amalga oshirilgan. Buning asosiy omillari shundaki, agarda ziroatkorlar turli jabhalardagi mahsulotlarini o'z talablarini qondirish uchun zarur xajmda ishlab chiqargan bo'lsalar, Qadim Farg'ona (Davan) davlatining zodagonlari ichki siyosatida, ehtimol, dastlab soliqlar salmog'ini kuchaytirish vositasida, ziroatkor madaniyat sohiblari resurslaridan foydalangan holda yirik xosildor muzofotlardan katta daromad olish ilinjida, dehqonchilikni tubdan taraqqiyot tomon isloh (Shaxrixonsoy va Andijonsoy singari yirik soylarni barpo etish) qilishlari nafaqat yangi bo'z yerlarni o'zlashtirilishiga, balki uni ortidan izma-iz shakllanib borgan turli ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish infrastrukturasi bo'lmish urbanizatsiya, ichki va tashqi savdoni keskin rivojlanishiga olib kelgan. Bu hol esa, ko'chmanchi va ziroatkor madaniyatlarining sintezi insoniyat taraqqiyotini yuksalishini Farg'ona vodiysi miqyosida ko'rsatadi.

*Maqola IL -462105791-sonli "Xonobod tog' etaklarida (Andijon viloyati) arxeologik obyektlarni o'rganish orqali 3D arxeologik xarita va elektron ma'lumotlar bazasini yaratish" loyihasi doirasida tayyorlangan.*

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

---

## ILMIY AXBOROT

1. Абдулгазиева Б. Исследование поселения Султанабад // Мат-лы междунар. конф. "Средняя Азия: история, археология, культура". Москва: "Наука", 1997. С. 12-16.
2. Абдуллаев Б. М. Об элементах кочевой культуры в фортификационных сооружениях Ферганы // Мат-лы междунар. науч. конф. "Цивилизации и культуры Центральной Азии в единстве и многообразии". Самарканд: МИЦАИ, 2010. С. 61-68.
3. Абдуллаев Б. М. Андикон вилояти археологик ёдгорликлари // Фаргона водийси тарихи янги тадқиқотларда. Республика (III) илмий анжумани мат-лари. Фаргона, 2014. Б. 47-49.
4. Абдулаев Б. М. Некоторые итоги раскопок 2014-2015 гг. на памятнике Коштепа-2 // Археология Узбекистана. Под ред. Т. Ш. Ширинова. Самарканд, 2016а. № 1. С. 45-48.
5. Абдуллаев Б. М. Некоторые итоги исследований на поселении Коштепа-2 // ТД. Междунар. науч. конф. "Аспекты Согдийской культуры". Санкт-Петербург, 2016б. С. 4-12.
6. Абдуллаев Б. М. Урбанизационные процессы античной Ферганы // История и археология Турана. Под ред. А. Э. Бердимурадова. Самарканд, 2017. № 3. С. 113-120.
7. Абдуллаев Б. М. К проблеме последовательного или параллельного существования культур Ферганы эпохи раннего железа и античности // Бюллетень МИЦАИ. Самарканд, 2018а. № 1 (27). С. 5-18.
8. Абдуллаев Б. М. Довон давлати ва унинг пойтахти муаммосига доир // "Ўзбек давлатчилиги тарихида Ахсикент шаҳрининг ўрни" халқаро конф. мат-ри. Наманган, 2018б. 63-73 б.
9. Абдуллаев Б. М. Бир ёдгорлиқда Фаргона тарихи // История и археология Турана. Под ред. А. Э. Бердимурадова. Самарканд, 2019. № 4. С. 91-116.
10. Абдуллаев Б. М. Некоторые замечания по проблеме древнеферганского государства и его столицы // Бюллетень МИЦАИ. Самарканд, 2020. № 30. С. 91-100.
11. Абдуллаев Б. М. Фаргона водийси илк темир даври маданиятлари // Issues of the Central Asian history in world historiography I first International scientific conference / section 3: Issues of the central asian history in modern historiography. Фаргона, 2022. Б. 100-107.
12. Абетиков А. А., Гаврюшенко П. П., Заурова Е. З., Кожемяко П. П., Кожомбердиев И. К., Юнусалиев Н. Б. Археологические работы в Киргизии // АО 1967. Москва: Наука, 1968. С. 356-360.
13. Аванесова Н. А. Проявление степных традиций в сапаллинской культуре // Мат-лы междунар. науч. конф. Цивилизации и культуры Центральной Азии в единстве и многообразии. Самарканд-Ташкент: МИЦАИ, 2010. С. 27-34.
14. Аванесова Н. А. Погребальный обряд некрополя Бустон VI, как отражение межкультурных взаимодействий // Мат-лы междунар. науч. конф. Культурный трансфер на перекрестке Центральной Азии: до, во время и после Шелкового пути. Самарканд-Ташкент: МИЦАИ, 2013. С. 107-133.
15. Амброз А. К. Раннеземледельческий культовый символ // СА. Москва: Академии наук СССР, 1965. № 3. С. 14-27.
16. Анарбаев А., Максудов Ф., Кубаев С. Чильхуджра (Қыркхуджра): руины древнего города северо-западной Ферганы // ИМКУ. Вып. 39. Под ред. А. Э. Бердимурадова. Самарканд, 2015. С. 89–112.
17. Аридизация, опустынивание – процесс образования рельефа // <https://studbooks.net/1735636/geografiya/aridizatsiya>
18. Аскаров А. А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи / Мух. А. Бобониёзов. Тошкент: "O'zbekiston", 2015. 672 б.
19. Аскаров А. А., Альбаум Л. И. Поселение Кучуктепа / Отв. ред. Ю. А. Заднепровский. Ташкент: "Фан", 1979. 112 с.: ил.; 21 см.
20. Баруздин Ю. Д. Кара-булакский могильник // Изв. АН Кирг. ССР. Том III. Вып. 3. Фрунзе: «Илм», 1961. С. 43-82.
21. Береналиев О. Б. Следы древней ирrigации Киргизии // Страницы истории и материальной культуры Киргизстана. Фрунзе: АН Кирг. ССР, 1975. С. 148-167.
22. Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. Москва: "Академии наук СССР", 1952. № 26. 344 с.
23. Гаврюшенко П. П. Кулунчакское укрепленное поселение: автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент: "Узгипрозем", 1970. 27 с.
24. Гамбург Б. З., Горбунова Н. Г. Ак-тамский могильник // КСИИМК. Вып. 69. Москва: "Академии наук СССР", 1957. С. 78-90.
25. Горбунова Н. Г. Кунгайский могильник // АСГЭ. Вып. 3. Ленинград: "Гос. Эрмитаж", 1961а. С. 171-194.
26. Горбунова Н. Г. К вопросу о расписной керамике в Ферганской долине // СГЭ. Вып. XXI. Ленинград: "Гос. Эрмитаж", 1961б. С. 41-44.
27. Горбунова Н. Г. Археологические работы в Фергане // СГЭ. Вып. 22. Ленинград: "Гос. Эрмитаж", 1962. С. 54-60.
28. Горбунова Н. Г. Итоги исследования археологических памятников Ферганской области // СА. Москва: Академии наук СССР, 1979а. № 3. С. 16-46.
29. Горбунова Н. Г. Некоторые особенности формирования древних культур Ферганы // АСГЭ. Вып. 25. Ленинград: "Гос. Эрмитаж", 1984. С. 99-107.
30. Давыдова А. В. К вопросу о роли оседлых поселений в кочевом обществе сюнну // КСИА. Москва: Академии наук СССР, 1978. № 154 С. 55-59.
31. Давыдова А. В. Иволгинский комплекс (городище и могильник) – памятник хунну в Забайкалье. Ленинград: Изд-во ЛГУ, 187 с.
32. Заднепровский Ю. А. Археологические памятники южных районов Ошской области. Фрунзе: АН Кирг. ССР, 1960а. 176 с.
33. Заднепровский Ю. А. Городище Эйлатан // СА. Москва: Академии наук СССР, 1960б. № 3. С. 29-45.


34. Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. Вып. 118. Москва-Ленинград: "Наука", 1962. 328 с.
35. Заднепровский Ю. А. Типология и динамика развития городских поселений древней Ферганы // ТД. конф. "Древний город Средней Азии" / АН СССР; Институт археологии; Научный совет по археологии Средней Азии и Казахстана. Ленинград, 1973. С. 17-20.
36. Заднепровский Ю. А. Приемственность и инновации в развитии культуры (по материалам древней Ферганы) // Приемственность и инновации в развитии древних культур: Материалы методол. семинара Ленингр. отд-ния Инс-та археологии АН СССР / Отв. ред. В. М. Массон, В. Н. Боряз. Ленинград: "Наука", 1981а. С. 95-98.
37. Заднепровский Ю. А. К истории оазисного расселения в первобытной Средней Азии // КСИА. Вып. 167. Москва: "Наука", 1981б. С. 23-27.
38. Заднепровский Ю. А. Спорные вопросы истории культуры древней Ферганы // КСИА. Вып. 199. Москва: "Наука", 1993. С. 17-23.
39. Иванов Г. П. Археологические культуры Ферганы (периодизация и синхронизация): автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Самарканд, 1999. 24 с.
40. Иванов Г. П. Ранняя государственность на территории древней Ферганы / <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-280993-1.html> 2013. 4 с.
41. Иванов Г. П. Государственность на территории Узбекистана в свете истории древней Ферганы / <https://docplayer.com/39868961-Gosudarstvennost-na-territorii-uzbekistana-v-svete-istorii-drevney-fergany.html> 2017. 14 с.
42. Изабель Калиновски. "Искусство кочевников Центральной Азии" (1931 г.): Карл Эйнштейн и концепция искусства кочевников // Культурный трансфер на перекрестках Центральной Азии: до, во время и после Великого Шелкового пути. Париж-Самарканд: МИЦАИ, 2013. С. 195-201.
43. Караматов Х. С. Древние культуры Центральной Азии / Отв. ред. Э. В. Ртвеладзе. Самарканд-Ташкент: МИЦАИ, SMI-ASIA, 2017. 184 с.
44. Козенкова В. И. Археологические работы в Андижанской области в 1956 году // КСИИМКА. Вып. 76. Москва: Академии наук СССР, 1959. С. 56-62.
45. Колтовой Н. А. Метод Кирлиан. Фигуры Лихтенберга // Математическая морфология. Часть 5. Москва-Смоленск, 2017. 95 с. 121 илл.
46. Комороци Г. К символике дерева в искусстве древнего Двуречья // Древний Восток и мировая культура. Москва: "Наука", 1981. С. 142-154.
47. Кошеленко Г. А. Греческий полис на эллинистическом Востоке. Москва: "Наука", 1979. 295 с.
48. Крадин Н. Н. Кочевники Евразии. Алматы: "Дайк-пресс", 2007. 416 с.
- 49. Кузмина Е. Е. Металлические изделия энеолита и бронзового века в Средней Азии // САИ. Вып. 4-9. Москва: "Наука", 1966.** 150 с., 3 л. ил.
50. Латынин Б. А. Эйлатанская расписная чаша // КСИИМК. Вып. 80. Москва: Академии наук СССР, 1960. С. 90-92.
51. Латынин Б. А. Некоторые итоги работы Ферганской экспедиции 1934 г. // АСГЭ. Вып. 3. Ленинград: Гос. Эрмитаж, 1961. С. 126-150.
52. Литвинский Б. А. Памятники эпохи бронзы и раннего железа Кайрак-Кумов // Древности Кайрак-Кумов / Отв. ред. Д. Е. Хайтун. Труды АН Тадж. ССР. Том. XXXIII. Душанбе, 1962. С. 90-403.
53. Литвинский Б. А. Чустская культура // История Таджикского народа. Под ред. Б. Г. Гафурова и Б. А. Литвинского. Москва: "Наука", 1963. С. 124-127.
54. Литвинский Б. А. Керамика из могильников Западной Ферганы. Под ред. М. М. Хасмана. Москва: "Наука", 1973. 259 с.
55. Литвинский Б. А. Проблемы этнической истории древней и раннесредневековой Ферганы // История и культура народов Средней Азии. Под ред. Б. Г. Гафурова и Б. А. Литвинского. Москва: "Наука", 1976. С. 49-65.
56. Матбабаев Б. Х. Некоторые итоги сравнительного изучения расписной керамики чустской культуры // ИМКУ. Вып. 30. Под ред. Т. Ш. Ширинова. Ташкент, 1999. С. 41-54.
57. Матбабаев Б. Х., Чен Линг, Исамиддинов М. Х., Алоухунов А., Абдулгазиева Б., Ильясова С., Хошимов Х. Археологические работы на городище Мингтепа // Археологические исследования в Узбекистане - 2012 год. Под ред. А. Э. Бердимурадова. Самарканд, 2013. С. 93-100.
58. Оболдуева Т. Г. О датировке стен Эйлатана // СА. Москва: "Наука", 1981. № 4. С. 186-195.
59. Плетнева С. А. От кочевий к городам // МИА. Москва: "Наука", 1967. № 142. 200 с.
60. Пэрлээ Х. К вопросу о древней оседлости в Монгольской Народной Республике // Бронзовый и ранний железный век Сибири. Новосибирск: "Наука" СО, 1974. С. 271-274.
- 61. Салтовская Е. Д. О погребениях скотоводов в северо-западной Фергане // КСИА. Вып. 154. Москва: "Наука", 1978. С. 91-99.**
62. Сулейманов Р. Х. Древний Нахшаб. Проблемы Цивилизации Узбекистана VII в. до н.э. – VII в. н.э. / Отв. ред. Э. В. Ртвеладзе. Ташкент: Изд-во "Фан", 2000. 338 с.
63. Троицына М. Молния рисует узоры на теле // <https://www.yoki.ru/anomalous/unreal/17-03-2012/400229-keranograf-0/>
64. Хўжаназаров М., Холматов А. Қорақиясой қоятош суратлари тадқиқотларига доир // ИМКУ. Самарканд, 2012. № 37. 53-56 б.
65. Abdullaev B. M. Some remarks on the issue of the ancient Ferghana state and its capital // Bulletin of IICAS. Vol. 30. Samarkand, 2020. PP. 89-98.
66. Abdullaev B. M., Kambarov N. Sh. Xonobod yodgorliklari tadqiqotlarining dastlabki natijalari // The history of the Fergana valley in new researches. www. research-support-center.com, 2021. 233-249 б.

---

## ILMIY AXBOROT

67. Fettich N. Über den sinn der prähistorischen ornamente // Acta Archaeologica, T. IX. Budapest, 1958. PP. 115-124.
68. Gorbunova N. G. The culture of Ancient Fergana VI centure B.C. – VI centure A. D. British archeological reports. International Series 281. Oxford, 1986. 365 p.
69. Hayashi T. Agriculture and Settlements in the Hsiung-nu // Bulletin of the Ancient Orient Museum. Vol. VI. Tokyo. 1984. PP. 51-92.

### Illyustratsiyalar



1-rasm. Qo'lda yasalgan naqshli finjonlar



2-rasm. Qo'lda yasalgan naqshli kosa




3-rasm. Qo'lda yasalgan naqshli kosa




4-rasm. Vertikal chiziqchalar bilan birlashtirilgan ikkita parallel chiziq vositasida berilgan kosa labidagi naqsh



5-rasm. Sultonobod massividan tasodifiy topilma – xurmacha



6-rasm. Kosa labidagi ichi qiya to'r bilan to'ldirilgan tasma ko'rinishidagi naqsh



**7-rasm. Aylana yoki uchlari birlashtirilgan gorizontal chiziq ko'rinishidagi naqsh**